

Qadimgi Sparta va Afina maktablaridagi ta'lim tizimining qiyosiy tahlili

Durdona Ilxomjon-qizi Toshmirzayeva
Ilmiy maslahatchi: M.M.Mirzakarimova
Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi Yunonistonning ikki yirik shahar-davlati - Sparta va Afina ta'lim tizimi qiyosiy-tahliliy asosda o'rganiladi. Tadqiqotda Spartadagi harbiy-intizomiy "agoge" tizimi hamda, Afinadagi ma'naviy-intellektual yo'nalishga asoslangan ta'lim modeli chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'limning ijtimoiy vazifasi, shaxs kamolotidagi roli, davlat mafkurasi bilan bog'liqligi va ushbu ikki modelning zamonaviy pedagogika taraqqiyotiga ta'siri ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: Sparta, Afina, agoge, qadimgi Yunoniston, pedagogika tarixi, harbiy tarbiya, demokratiya, jismoniy tayyorgarlik, notiqlik san'ati, falsafa, ma'naviy tarbiya, mafkura, Platon

Comparative analysis of the education system in the schools of ancient Sparta and Athens

Durdona Ilkhomjon-kizi Toshmirzayeva
Scientific advisor: M.M.Mirzakarimova
Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article studies the education system of two major city-states of ancient Greece - Sparta and Athens - on a comparative-analytical basis. The study deeply analyzes the military-disciplinary "agoge" system in Sparta and the educational model based on the spiritual-intellectual orientation in Athens. Also, the social function of education, its role in personal development, its connection with state ideology, and the impact of these two models on the development of modern pedagogy are scientifically covered.

Keywords: Sparta, Athens, agoge, ancient Greece, history of pedagogy, military education, democracy, physical training, oratory, philosophy, spiritual education, ideology, Plato

Qadimgi Yunoniston insoniyat tarixida nafaqat siyosiy va madaniy yutuqlari, balki pedagogik tajribasi bilan ham alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, Sparta va Afina

shahar-davlatlari ikki xil ijtimoiy tuzum va mafkuraga tayangan holda o'ziga xos ta'lim tizimini shakllantirdi.

Ta'lim har qanday jamiyatning kelajagini belgilovchi omil hisoblanadi. Qaysi qadriyat ustuvor bo'lsa, ta'lim tizimi ham shunga mos ravishda quriladi. Spartada asosiy maqsad - harbiy qudratni mustahkamlash bo'lgan bo'lsa, Afinada fuqarolik ongini rivojlantirish va intellektual salohiyatni oshirish ustuvor vazifa sifatida qaraldi.

Sparta ta'lim tizimi. Sparta Peloponnes yarimorolida joylashgan harbiylashgan davlat bo'lib, uning siyosiy barqarorligi doimiy jangovar tayyorgarlikka bog'liq edi. Aholining asosiy qismi qullar - ilotlardan iborat bo'lgani sababli, har qanday qo'zg'olon xavfi mavjud edi. Shuning uchun, davlat kuchli armiyaga muhtoj edi.

Shu bois, Spartada qattiq intizomga tayyorlovchi ta'lim tizimi tashkil etildi. Bu ta'lim tizimi "agoge" nomi bilan mashhur bo'lib, u davlat tomonidan to'liq nazorat qilingan. Agogening maqsadi "eng kuchki askar" ni tarbiyalash edi. Unga ko'ra bola tug'ilishi bilan ko'rikdan o'tkazilgan. Zaif yoki kasalmand bolalarni tog'dagi jarliklarga tashlab qatl qilishgan. Sog'lom bolalar esa, 7 yoshga yetgach, oilaviy tarbiyadan ajratilib, agoge tashkil etgan maxsus guruhlariga birlashtirilgan. Bu jarayon shaxsiy emas, balki kollektiv tarbiya tamoyiliga asoslangan.

Spartada bola avvalo oila a'zosi emas, balki kelajakdagi jangchi sifatida qaralgan. Uning qiziqishlari, individual moyilliklari yoki shaxsiy tanlovi muhim hisoblanmagan. Tarbiya tizimi shaxsiy "men"ni emas, balki "biz" tushunchasini ustuvor qo'ygan. Bu esa kollektiv ongni mustahkamlab, davlatni himoya qilishni eng oliy qadriyat darajasiga ko'targan

Agoge tizimida asosiy e'tibor jismoniy chiniqish, chidamlilik va qat'iyatni shakllantirishga qaratilgan. Bolalar sovuq sharoitda yashashga, kam ovqat bilan qanoatlanishga, og'riqqa bardosh berishga o'rgatilgan. Ular jangovar mashqlar, qurol ishlatish, strategik harakatlar bilan shug'ullangan.

Spartada nutq qisqa va lo'nda bo'lishi talab qilingan. Ortiqcha gapirish zaiflik belgisi sifatida baholangan. Bu pedagogik yondashuv yoshlarning fe'l-atvorida qat'iyat va jiddiylikni mustahkamladi.

Spartalik ayollar ham davlat tomonidan nazorat qilinadigan rasmiy ta'lim olishgan. Qizlar ta'lim olgan davlat maktablarining ham asosiy qismi jismoniy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan. Ular yugurish, kurash va gimnastika bilan shug'ullangan. Bu yondashuvning maqsadi sog'lom naslga ta'minlash edi.

Sparta modeli shaxsni mustaqil individ sifatida emas, balki davlat manfaatlariga xizmat qiluvchi fuqaro sifatida tarbiyaladi. Bunday modelda erkin fikrlash yoki mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari keng rivojlantirilmagan, chunki ular harbiy intizomga zid bo'lishi mumkin edi. Aksincha, buyruqqa so'zsiz bo'ysunish, og'ir sharoitlarga chidamlilik va hissiy barqarorlik asosiy tarbiyaviy mezon sifatida

qaralgan. Natijada Sparta jamiyatida yuqori darajadagi harbiy uyushqoqlik shakllangan, biroq individual erkinlik va ijodkorlik cheklangan.

Shu jihatdan Sparta tajribasi davlat manfaatlarini shaxs manfaatlaridan ustun qo'ygan tarbiya modelining tarixiy namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu model qisqa muddatda harbiy qudratni mustahkamlashga xizmat qilgan bo'lsa-da, uzoq muddatli madaniy va ilmiy taraqqiyot uchun zarur bo'lgan intellektual erkinlikni yetarlicha ta'minlay olmagan.

Afinada ta'lim tizimining asosiy tamoyillari. Afina ijtimoiy tuzilishi jihatidan Spartadan keskin farq qilgan. Bu jamiyat nisbatan ochiq va demokratik tuzumga ega bo'lgan. Shu sababli ta'lim tizimi ham kengroq ma'naviy va intellektual maqsadlarni ko'zlagan. Afina ta'lim konsepsiyasi "paideya" tushunchasi bilan ifodalangan bo'lib, u insonni har tomonlama kamol toptirish g'oyasiga asoslangan.

Afina ta'lim tizimi ko'proq xususiy maktablar orqali amalga oshirilgan. Ota-onalar farzandlarini moddiy imkoniyatidan kelib chiqib maktablarga bergan. Boshlang'ich bosqichda bolalar harflarni o'rganish, matnni ifodali o'qish, oddiy arifmetik amallarni bajarish kabi amaliy bilimlarga ega bo'lganlar. Bu jarayon ularni kundalik hayot va savdo-sotiq faoliyatiga tayyorlash vazifasini bajargan.

Keyingi bosqichda esa ta'lim mazmuni yanada boyib, musiqa va she'riyat darslari muhim o'rin egallagan. Musiqa nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki shaxsning ichki dunyosini shakllantiruvchi omil sifatida qadrlangan. Lira chalish, qo'shiq kuylash yoki she'r yod olish orqali o'quvchilarda did, ritmni his qilish va nutq madaniyati rivojlantirilgan. She'riyat darslari esa axloqiy va fuqarolik qadriyatlarini singdirish vositasi bo'lib xizmat qilgan, chunki qadimgi yunon adabiyoti qahramonlik, jasorat va donolik g'oyalarini targ'ib qilgan.

Platon musiqaning sport bilan tengligini ta'kidlab, "gimnastika tana uchun musiqa esa ruh uchun" deb aytib o'tgan.

Afina modeli muvozanat tamoyiliga tayangan: jismoniy va aqliy rivojlanish birgalikda shakllantirilgan. Shunga ko'ra, Afina maktablarida jismoniy tarbiya fani ham olib borilgan, biroq u Spartadagidek og'ir intizomga asoslanmagan. Mashg'ulotlarda asosan gimnastika, poyga, disk va nayza uloqtirish va uzunlikka sakrash bilan shug'ullanishgan. Afinada sport ta'limining ikkita maqsadi bor edi. Bularning biri bolalarni mahalliy va Panhellen sport o'yinlariga tayyorlash, yana biri esa yunon madaniyati uchun muhim sanalgan chiniqqan va ko'rkam tanaga erishish edi.

Afinada ayol-qizlarning rasmiy ta'lim olishi muhim hisoblanmagan. Rasmiy ta'limda o'g'il bolalarga matematika, musiqa va jismoniy tarbiya o'rgatilsa, qizlarga uyni boshqarish va oiladagilarga g'amxo'rlik qilish asosiy vazifa etib yuklangan. Qizlar tikishni, uy tozalashni va ro'zg'or yuritish kabi ko'nikmalarni o'rganishgan.

Qizlar ta'limining yana bir muhim qismi farzand ko'rish va ularni tarbiyalash bo'lgan.

Ikkala tizimning pedagogik solishtirma tahlili. Sparta va Afina ta'lim tizimlari bir-biriga qarama-qarshi ko'rinsa-da, har ikkisi ham o'z jamiyatining ehtiyojidan kelib chiqqan.

Sparta - kollektivism va intizom modeli.

Afina - individualizm va intellekt modeli.

Spartada "davlat uchun yashash" g'oyasi ustuvor bo'lgan bo'lsa, Afinada "ongli fuqaro" konsepsiyasi rivojlandi.

Pedagogik jihatdan qaralganda, Sparta modeli avtoritar, Afina modeli esa nisbatan demokratik xarakterga ega edi. Spartada jazolash vositasi keng qo'llangan bo'lsa, Afinada suhat va mantiqiy isbot ustun bo'lgan. Birinchisi barqaror harbiy tizimni yaratgan, ikkinchisi esa ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga zamin hozirlagan. Shu jihatdan qaraganda, Afina modeli zamonaviy ta'lim tizimlariga yaqinroq bo'lib, insonparvarlik tamoyillariga asoslangan. Sparta tajribasi esa harbiy pedagogikaning tarixiy namunasidir.

Zamonaviy ta'limga ta'siri. Bugungi pedagogik tizimlar ushbu ikki tarixiy modeldan ma'lum elementlarni meros qilib olgan. Harbiy akademiyalarda intizom va jismoniy tayyorgarlik Spartaga xos tamoyillarga yaqin. Liberal san'at va universitet tizimi esa Afina an'analarini davom ettiradi.

Qadimgi Sparta va Afina maktablarida ta'lim va tarbiya tizimi jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllangan. Har ikki tizim pedagogika tarixida muhim o'rin tutadi. Ularning tajribasi zamonaviy ta'lim nazariyasining shakllanishida muhim bosqich bo'lib xizmat qilgan. Ta'lim tizimining mazmuni jamiyat maqsadlari bilan uzviy bog'liq ekanligi aynan shu ikki tarixiy model misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Zamonaviy ta'lim shaxsni har tomonlama rivojlantirishni maqsad qiladi. Bu esa Sparta va Afina tajribasining uyg'unlashgan shakli hisoblanadi. Demak, tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, samarali ta'lim tizimi jismoniy, intellektual va ma'naviy tarbiyaning uyg'unligiga asoslanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov, A. Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent: Sharq, 2009.
2. Madaminjonovna, M. M. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
3. Muhammaddilyor Diyorbek O'G'Li Uzoqjonov, & Maxliyoxon Madaminjonovna Mirzakarimova (2025). Atrof-muhitni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash muammolari. Science and Education, 6 (12), 17-21.

4. Mirzakarimova, M. (2025). O 'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIAGNOSTIK TAHLILI. Scientific journal of the Fergana State University, (4), 1-1.
5. Mirzakarimova, M. (2025). Didactic Effectiveness of Teaching General Sciences with an Entrepreneurial Orientation. Journal of Institutional Research South East Asia, 23(3).
6. Uzoqjonov, M. D. O. G. L., & Mirzakarimova, M. M. (2025). Zamonaviy texnologiyalarning atrof-muhitga ta'siri. Science and Education, 6(11), 281-284.
7. El-Atrash, A., Zaki, S., Tousson, E., & Negm, M. (2022). Copper oxide nanoparticles induced liver and kidney toxicity in rat. Asian Journal of Biochemistry, Genetics and Molecular Biology, 12(4), 154-160.
8. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonov, M. D. O. G. L. (2025). Zamonaviy axborot texnologiyalariga o 'tishda axborot xavfsizligi. Science and Education, 6(10), 89-93.
9. МИРЗАКАРИМОВА, М. М. (2022). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙУНАЛТИРИБ У^ ИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ.
10. Madaminjonovna, M., & Uzoqjonov, M. (2025). The possibilities of solving environmental problems through technology. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(7), 11-15.
11. Uzoqjonov, M., & Mirzakarimova, M. (2025). The role and significance of artificial intelligence in modern society. Technical Science Integrated Research, 1(6), 8-10.
12. Mirzakarimova, M., & Uzoqjonov, M. (2025). Information security in information-communication technologies. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(6), 8-11.
13. Умнов, Д. Г., Кариев, А. Д., Тешабоев, А. Ю., & Мирзакаримова, М. М. (2024). Формирование финансовой грамотности и культуры потребления у старших дошкольников. Перспективы науки и образования, (6 (72)), 420-436.
14. MADAMINJONOVNA, M. X. T. T. Y. (2022). NALTIRIB O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI. Nova. Pub, 1-128.
15. Madaminjonovna, M. M. (2024). ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE" MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM. Web of Teachers: Inderscience Research, 2(5), 51-55.
16. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi. Science and Education, 5(3), 264-269.
17. Mirzakarimova, M. M. (2024). O'qituvchining muomala madaniyati. Science and Education, 5(4), 278-282.

18. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji. *Science and Education*, 5(2), 224-228.
19. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari. *Science and Education*, 4(12), 321-324.
20. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish. *Science and Education*, 4(11), 78-83.
21. Mirzakarimova, M. (2023). CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATION METOD VA VOSITALAR. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (6), 410-415.
22. Мирзакаримова, М. М. (2020). Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 97-103.
23. Мирзакаримова, М. М. (2020). ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL" INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY*, 1(1), 63-65.
24. Mirzakarimova, M. M. (2022). The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes. *Telematique.-2022.-S*, 7128-7131.
25. Мирзакаримова, М. М. (2020). Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 216-222.
26. Mirzakarimova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES. *Академические исследования в современной науке*, 2(8), 92-94.
27. Madaminjonovna, M. M. (2023). Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies. *International Journal of Human Computing Studies*, 5(3), 15-17.